

JAMIYATDA VA OILADA INKLYUZIV TA'LIM MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Sodiqova Muslima Tolibjon qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Special pedagogy fakulteti talabasi
Sadikovamuslima1215@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada oilada inklyuziv madaniyatni shakllantirish orqali inklyuziv jamiyatga o'tishning ayrim masalalari borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: inklyuziv jamiyat, inklyuziv madaniyat, oila, imkoniyati cheklangan bolalar.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются некоторые вопросы перехода к инклюзивному обществу через формирование инклюзивной культуры в семье.

Ключевые слова: инклюзивное общество, инклюзивная культура, семья, дети с ограниченными возможностями.



Annotation:

This article discusses some issues of transition to an inclusive society through the formation of an inclusive culture in the family.

Keywords: Inclusive society, inclusive culture, family, children with disabilities.

So'nggi yillarda mamlakmiz ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar va yangilanishlar imkoniyati cheklangan shaxslarning hayotiga ham chuqur kirib bormoqda. Imkoniyati cheklangan shaxslarning huquq-manfaatlarini himoyalash va ro'yobga chiqarish borasida xalqaro tajriba va umume'tirof etilgan tamoyillar hamda me'yorlarning izchil joriy etilishi va o'ziga xos milliy tajriba yaratilayotganligi ham shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda rasmiy e'lon qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lif to'g'risida"gi qonunida ta'lif sohasidagi munosabatlarni tartibga

solist maqsadi belgilangan. Mazkur qonunga birinchi marta "inklyuziv ta'lim" tushunchasi kiritildi.

"Bu borada "inson qadri uchun" tamoyili asosida Yangi O'zbekistonda inklyuziv jamiyatni rivojlanish, ya'ni aholining barcha qatlamlari uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgani muhim rol o'ynameqda"

Demak, yurtimizda bevosita davlatning ishtirokida inklyuziv jamiyaga o'tish jarayoni boshlangan ekan, uning nafaqat amaliy, balki ilmiy nazariy masalalari ham kun tartibida dolzarblastib boraveradi.

Ma'lumki, "inklyuziv jamiyat" keng qamrovli tushuncha bo'lib, turli o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan insonlarning ma'lum jamiyatga to'siqsiz integratsiyalashuvini anglatadi. Nogironligi bo'lgan shaxslar borasida inklyuziv jamiyat nogironlikni tibbiy jihatdan tan olgan holda, uning oldini olish, malakali tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish bilan birgalikda, ijtimoiy jihatdan ulardagi ma'lum nuqsonlarga qaramasdan jamiyatda uning sog'lom a'zolari bilan teng huquqlar va imkoniyatlarda jamiyat hayotida o'zining munosib o'rniqa, mavqeiga va hayot sharoitlariga ega bo'lishini nazarda tutadi.

Hozirgi kunda Respublikamizdagi huquqiy- me'yoriy hujjalalar asosida nogironligi bo'lgan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun mакtabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'llim maktablar, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim joriy etilmoqda va ushbu toifadagi insonlarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtiroki ta'minlanmoqda. Inklyuziv jamiyatga o'tishning bir qator shart-sharoitlari bo'lib, ular sirasida inklyuziv madaniyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Sababi jamiyatdagi har qanday ijobiy o'zgarish, bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish faqatgina shu jamiyat a'zolarining faol ishtiroki va qo'llab-quvvatlashi orqali samarali amalga oshadi. Bunda esa, o'z navbatida, shunga mos dunyo qarash va madaniyatni talab etadi. Bir so'z bilan aytganda, inklyuziv madaniyat "insonlarning qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish", "turli toifadagi insonlarga nisbatan xayrixohlik", "turli xil farqli jihatlariga ko'ra kamsitmaslik", "barchaga insoniylik va insonparvarlik munosabatida bo'lish", "imkoniyati cheklangan shaxslarga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash" kabi tushunchalar bilan ham uyg'unlashadi.

Har qanday madaniyatga, eng avvalo, oila muhitida tamal toshi qo'yilgani kabi inklyuziv madaniyatning ham boshlang'ich nuqtasi oiladir. Imkoniyati cheklangan bolalar muammolariga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar mazkur toifadagi bolalarning rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga faol integratsiyasi oilada



inklyuziv madaniyatning shakllanganlik darajasi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Ma'lumki, imkoniyati cheklangan bolaning dunyoga kelishi oila uchun ma'lum muammolar va qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi, tabiiydir. Avvalo, ota-onal bu holatga to'liq ruhan tayyor emasligi masalaning birinchi tomoni bo'lsa, keyingi muammolar oila muhitida bolaning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra to'laqonli rivojlanishi uchun zarur munosabat, shart-sharoitlar, imkoniyatlar, ko'mak va qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq holda zanjir reaksiyasi shaklida vujudga kelib boradi. Oiladagi inklyuziv madaniyatning birinchi va muhim sharti bu imkoniyati cheklangan bolaga bo'lgan to'g'ri va ijobiy munosabatdir. Lekin bilamizki, har doim ham bunday munosabat ota-onalardan kutilavermaydi. Ota-onalar yoki oiladagi boshqa insonlarning bilim, saviya va hayotiy tajriba darajasi bolaga nisbatan birlamchi munosabatlarning shakllanganligi o'zining ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bizningcha, bunday vaziyatdagi oilalarga boshlang'ich psixologik, tibbiy va pedagogik maslahatlar bola dunyoga kelganining ilk kunlaridanoq bevosita perinatal markazlarning o'zida berilgani ma'qul. Shuningdek, keyingi bosqchilarda imkoniyati cheklangan chaqaloqning salomatligi bilan bir qatorda ota-onalarning ruhiy holati va bolaga munosabati ham oila istiqomat qiladigan hududdagi tibbiyot muassasalari va tibbiy-ijtimoiy xizmatlar diqqat-e'tiborida bo'lmog'i zarur.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, inklyuziv madaniyat, birinchi navbatda, ota-onalarning jismoniy imkoniyati cheklangan bolani ijobiy rivojla-nishning noyob imkoniyati bo'lgan shaxs sifatida idrok etishga, uni ijtimoiy o'zaro harakatlanish, muloqot, ta'lim olish, faol turmush kechirishga yashirin qobiliyat va ehtiyojga ega bo'lgan teng huquqli sub'ekt sifatida qabul qilishga tayyorliklariga bog'liq. N.N. Malofeevning fikricha, "hech kim "alohida ehtiyojli bola"ning bolalikni to'laqonli yashab o'tishi, o'ynab-kulish, har daqiqalik korreksion maqsadlarni ko'zda tutuvchi qarindoshlarining g'amxo'rliги va e'tiboriga huquqli ekanini o'yab ko'rmaydi". Inklyuziv madaniyat imkoniyati cheklangan bolaning jamiyatga faol integratsiyalashuvining muhim sharti va bosqichi bo'lgan ta'lim jarayonida ayniqsa, hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yurtimizda inklyuziv ta'limga o'tish jarayonlari izchil davom etayotgan ekan, ota-onalarda shakllangan inklyuziv madaniyat uning bola uchun sifatli va samarali kechishini ta'minlaydi. Maxsus ta'limdan farqli o'laroq, inklyuziv ta'limda "jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'iy nazar barcha bolalar umumiylar tarzda, o'z uyi, oilasi va hududida, ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan muassasalarda, o'z tengqurlari bilan birga ta'lim olishi demakdir". Bundan shunday xulosaga kelish zarur bo'ladiki, inklyuziv ta'lim sharotida ota-onal, garchi ular bunga hali tayyor



bo'lmasalarda, bola ta'lim-tarbiyasi uchun pedagog bilan deyarli teng vazifalarni o'z zimmasiga olishlariga to'g'ri keladi. Shu boisdan, inklyuziv ta'lim muassasalari ota-onalar bilan ishslashning aniq, maqsadli va imkon qadar har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tuzilgan reja va dasturlarga ega bo'lishlari va hamkorlikda faoliyatni amalga oshirib borishlari lozim bo'ladi.

Bizningcha, quyidagilar oilada inklyuziv madaniyatni shakllantirishda bugungi kunda o'zining ijobiy natijalarini beradi:

- perinatal, tibbiy va tibbiy-ijtimoiy xizmatlar faoliyati doirasida rivojlanishining ilk davrlaridanoq imkoniyati cheklangan bola uchun oilada ijobiy muhit va munosabatni shakllantirish bo'yicha dasturlarni amaliyotga joriy etish;
- oilalar uchun bir martalik kompleks yoki uzlucksiz maslahatlarni tashkil etib borish uchun alohida pedagogik-psixologik loyihalar ishlab chiqish va shunday tizimni yo'lga qo'yish;
- inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim muassasalari va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik sifati va samaradorligi indikatorlari hamda usullari bo'yicha namunaviy dasturlar, qo'llanmalar va tavsiyalarning yangi avlodini yaratish;
- imkoniyati cheklangan bolalar istiqomat qiladigan oilalar uchun maxsus saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda kanallar tashkil etish va targ'ibot ishlarini olib borish shular jumlasidandir.

Xulosa sifatida aytganda, oiladagi inklyuziv madaniyat inklyuziv jamiyatga o'tishda, inson rivojlanishining barcha davrlarini o'z ichiga olgan holda hal qiluvchi rollardan birini o'ynaydi. Bu esa maxsus ta'lim pedagogikasida inklyuziv madaniyatning barcha jihatlarini qamrab olgan yangi amaliy va ilmiy tadqiqotlarni olib borish, ta'lim tizimini metodik, ota-onalarni esa pedagogik-psixologik maslahat va ko'makning samarali tizimi bilan qamrab olishni talab etadi.

Inklyuziv ta'limning yetakchi psixologik g'oyasi shundan iboratki, barcha odamlar rivojlanish imkoniyatiga egalar. Rivojlanish mexanizmi bo'lib yuzaga chiqadigan omil esa bu imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ijobiy munosabat, to'g'ri yo'naltirilgan tahsil bo'lishini unutmaslik darkor.

Xulosa

Xulosa sifatida aytganda, imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatda faol integratsiyalashuvi va teng huquqlar asosida yashashlari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning muhim qismi hisoblanadi. Ayniqsa, yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda inklyuziv ta'lim tushunchasining joriy etilishi



ushbu sohadagi muhim qadamdir. Bu qonun imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim olishda teng imkoniyatlarni ta'minlash va ularning jamiyatga to'siqsiz qo'shilishiga zamin yaratadi.

Inklyuziv madaniyatning oilada shakllanishi esa bolaning jamiyatda faol ishtirokini va rivojlanishini ta'minlovchi muhim omildir. Oila muhitida imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ijobiy munosabat va zarur ko'makni ta'minlash orqali inklyuziv jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish mumkin. Shu sababli, inklyuziv ta'lim tizimi va oilalar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, maxsus maslahatlar va dasturlar orqali ota-onalarga ko'maklashish inklyuziv madaniyatni yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, inklyuziv jamiyatga o'tish jarayonida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar va islohotlar, ta'lim sohasidagi inklyuziv yondashuvlar imkoniyati cheklangan shaxslarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatning har bir a'zosiga nisbatan insonparvarlik va adolat tamoyillari asosida munosabatda bo'lishga yo'l ochadi.

Adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-sonli qonuni. // <https://lex.uz/docs/5013007>
- 2.Т.: О'zbekiston, 2017. 592-Б. 2. Культурология. // Учебник. / Под ред. Ю.Н.Солонина, М.С. Ка- гана. М.: Высшее образование, 2007.566 с.
3. Малофеев Н.Н. Особый ре- бенок обычное детство. // Ж.: Дефектология, 2010. № 6. С. 3-8.
4. Участие родителей, семьи и сообщества в инклюзивном образовании. Детский фонд ООН (ЮНИСЕФ), 2014.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'tarar
5. Qaharova D.S. inklyuziv ta'lim texnologiyasi. - T: Fan va texnologiya, 2014.192 b.